


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasi ishtirok etadi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yuqori darajadagi umumsiyosiy munozaralarida videomurojaat bilan so'zga chiqadi.

Davlatimiz rahbari xalqaro hamjamiyatga mintaqa va global kun tartibidagi dolzarb masalalar, BMTning zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi birgalikda chora ko'rishdagi roli yuzasidan o'z nuqtai nazarini taqdim etadi hamda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan va ortga qaytmas tus solgan chuqur demokratik islohotlarning mazmun-mohiyatini ochib beradi.

O'zbekiston yetakchisining nutqida, muhokamalarning mavzusini hisobga olib, COVID-19 pandemiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini BMT tomonidan e'lon qilingan «hech kimni ortda qoldirmaslik» prinsipi asosida birgalikda yengib o'tish masalalariga to'xtalib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, jahon iqtisodiyotini tiklash, barqaror taraqqiyotni ta'minlash, mintaqada va global darajada muloqotni kengaytirish, inson huquq va erkinliklarini ilgari surishga, shuningdek, iqlim o'zgarishi, atrof-muhit va biologik xilma-xillikning tanazzulga yuz tutishi, Orol dengizining qurishi kabi transmilliy tahidlarga qarshi kurashishga qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2020 yil sentyabr oyida o'tgan BMT Bosh Assambleyasini 75-sessiyasidagi nutqida ilgari surilgan barcha tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlangani va bugun o'zining amaliy ifodasini topayotganini ta'kidlash lozim.

Ularni amalga oshirish doirasida, jumladan, pandemiyaga qarshi samarali kurashish borasidagi chora-tadbirlar qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi tomonidan Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatları to'g'risida kodeks ishlab

chiqilgan bo'lib, bu boradagi global sa'y-harakatlarga mamlakatimizning hissasi sifatida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan rasmiy hujjat shaklida tarqatildi.

2021 yil may oyida BMT Bosh Assambleyasi Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. BMT shafeligida tashkil etilgan Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trast jamg'armasi samarali faoliyat yuritmoqda.

O'tgan haftada YUNESKO bilan hamkorlikda Xiva shahrida "Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" xalqaro madaniyat forumi muvaffaqiyatli tashkil etildi.

2021 yil noyabr oyida Toshkent shahrida BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlarining Qo'shma harakatlar rejasini bajarish natijalari va bu boradagi hamkorlik istiqbollariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyani o'tkazish rejalashtirilgan.